

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Ta`lim sifatini nazorat qilish bo`limi bosh mutaxassisi U.S.Axmedovanning “Sitologiya, gistologiya va embriologiya” fanidan “Tuxumdon va sperma surtmasining gistopreparatlarini o`rganish” mavzusidagi ochiq laboratoriya mashg`ulotining ishlanmasiga

TAQRIZ

Laboratoriya mashg`uloti mavzusi fan dasturi va fanning ishchi dasturiga to`liq mos keladi, laboratoriya mashg`ulot matni yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan holda uslubiy tomondan to`g`ri taqsimot qilingan. Dastlab mashg`ulotning maqsadi va vazifalari, laboratoriya mashg`ulotning o`qitish pedagogik texnologiyasi berilgan va o`quv faoliyat natijalari ko`rsatilgan. Laboratoriya mashg`ulotning texnologik xaritasida esa o`quv mashg`ulotining vaqti ko`rsatilgan.

Taqdimotda jinsiy hujayralarning gistomorfologik tuzilishi batafsil yoritilgan bo`lib, talabalar “Tuxumdon va sperma surtmasining gistopreparatlarini” mikroskop ostida ko`rib o`rganadilar. Tuxumdon va sperma surtmasining gistomorfologik tuzilishi bo`yicha bir nechta rasmlar berilgan bo`lib, ularda jinsiy hujayralarning gistomorfologik tuzilishi va tartibi aniq yoritilgan. Test savollari, nazorat savollari, vazifa va aqliy hujum savollari berilgan. Taqdimot foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati bilan yakunlangan.

U.S.Axmedova tomonidan “Sitologiya, gistologiya va embriologiya” fanidan tayyorlangan “Tuxumdon va sperma surtmasining gistopreparatlarini o`rganish” mavzusidagi laboratoriya mashg`ulotining taqdimoti hozirgi zamon ta`lim texnologiyalari talablariga javob beradi deb hisoblayman va uni o`quv mashg`ulotiga foydalanish uchun tavsiya qilaman.

“Hayvonlar anatomiyasi, gistologiya va patologik anatomiya” kafedراس dotsenti., vet.f.n.

Kuliyev B.A.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Ta`lim sifatini nazorat qilish bo`limi bosh mutaxassisi U.S.Axmedovaning “Sitologiya, gistologiya va embriologiya” fanidan “Tuxumdon va sperma surtmasining gistopreparatlarini o`rganish” mavzusidagi ochiq laboratoriya mashg`ulotining ishlanmasiga

TAQRIZ

“Sitologiya, gistologiya va embriologiya” fani talabalarda hayvonlarning jinsiy hujayralarni gistomorfologik tuzilishi xususiyatlari, hayvonlar organezmidagi tuxum va urug` hujayrasi organezimda juda katta ahamiyatga ega bo`lib, hayvonlar organizmda murakkab jarayonlarni – nasil qoldirish, hayvonlarning mavjud zotlarini saqlab qolish va yangi zotlar yaratish uchun xizmat qiladi. jinsiy hujayralarni gistomorfologik tuzilishi bo`yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirib, soha muammolarini hal qilishda muhim rol o`ynaydi.

“Sitologiya, gistologiya va embriologiya” fanidan tayyorlangan ushbu laboratoriya mashg`uloti bo`yicha berilgan ta`lim texnologiyasida zamonaviy ta`lim texnologiyalaridan foydalanish nazarda tutilgan. Laboratoriya mashg`ulot bo`yicha tayanch iboralar keltirilganligi mashg`ulotning yanada tushunarli bo`lishini ta`minlaydi.

Laboratoriya mashg`ulotining ma`tnida Tuxum va urug` hujayrasini gistomorfologik tuzilishi batafsil yoritilgan bo`lib, talabalar tuxumdon va sperma surtmasining gistopreparatlarini mikroskop ostida ko`rib o`rganadilar. Tuxum va urug` hujayrasini gistomorfologik tuzilishi bo`yicha bir nechta rasmlar berilgan bo`lib, tuxum va urug` hujayrasining gistomorfologik tuzilishi va tarkibi aniq yoritilgan. Test savollari, nazorat savollari, vazifa va aqliy hujum savollari berilgan. Taqdimot foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati bilan yakunlangan. tarqatma materiyallari talabalarga tushunarli tarzda lotin alifbosida yozilgan.

U.S.Axmedova tomonidan tayyorlangan “Sitologiya, gistologiya va embriologiya” fanidan “Tuxumdon va sperma surtmasining gistopreparatlarini o`rganish” mavzusidagi laboratoriya mashg`ulotining ishlanmasi hozirgi zamon ta`lim texnologiyalari talablariga javob beradi deb hisoblayman va uni o`quv mashg`ulotiga foydalanish uchun tavsiya qilaman.

Samarqand viloyat hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat maxsulotlari xavfsizligi Davlat markazi direktori

Allamuradova M.M.

